Muratova Shaxnoza Ibatovna	
Yoshlar o'rtasida ijtimoiy hamkorlikni mustahkamlashda pedagogik resurslar va hamkorlik infratuzilmasining ahamiyati	754
Matnazarov O'ktam Latipovich	
Maxsus pedagogika o'qituvchilarining pedagogik va psixologik tayyorgarlik darajasi	757
Oxunov Ilxomjon Abdunabiyeich	
Funksional bog'liqlikni tushinishda vizual-eksperimental metodning samaradorligi	760
Qobilova Nargiza Anvarovna, Shamuratov Zafar Ergashevich	
The Psychological Importance of Emotional Intelligence and Stress Resilience in Increasing Professional Efficiency of Primary School Pedagogues	766
Tajiboyeva Odinakhon	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida mashg'ulotlar jarayoni sifatini monitoring qilish vositasi sifatida	769
Tashbayev Naim Sadikovich	
Axloqiy tafakkur va axloqiy qaror qabul qilish kompetensiyasi tushunchasining pedagogik-psixologik mohiyati	773
Temirova Oydina Muhiddinova	
Oliy ta'lim muassasalarida "Muhandislik kompyuter grafikasi" fanini o'qitishning metodik asoslari va zamonaviy yondashuvlari	776
Xamidov Dilshod Olimjon o'g'li	
Kasbiy ta'lim rahbarlarining individual yondashuv asosida kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari ...	780
Yangiboyev Kamol Norboyevich	
Тема экологических проблем как элемент духовно-нравственного воспитания студентов в произведениях Чингиза Айтматова	784
Абдулвохидов Элёр	
Девиантное поведение школьников в образовательной среде: проблемы классификации и гендерные особенности восприятия педагогами	789
Алимжанова Матлюба Юнусовна	
Анализ проблем развития профессиональной иноязычной компетенции по английскому языку у студентов медицинских вузов	793
Исраилова Илона Халитовна	
Психолого-педагогические условия использования изобразительной деятельности как средства стимуляции коммуникативных навыков у воспитанников с синдромом дауна	798
Каримова Регина Шовкатовна	
Методика развития специальной физической подготовленности футболистов 11–12 лет с использованием современного инновационного оборудования	802
Мирзабаев Диёрбек Камилович	
Нейроигра как эффективное средство развития познавательных и регуляторных функций у детей дошкольного возраста	805
Намазбаева Лола Закировна, Маткаримова Шарира Рахимжановна	
Методы и приёмы технологии развития критического мышления в курсе "Общая педагогика": опыт проектирования учебного процесса в вузе	809
Янкина Рано Садыковна	
Oliy ta'lim muassasalarida muloqot madaniyatini shakllantirish orqali verbal zo'ravonlikni bartaraf etish texnologiyalari	817
Oqmirzayeva Baxtigul Bahodir qizi	
Tashvishli buzilishlarni korrektsiya qilishda kognitiv-bixevioristik terapiya usullari	821
Sattarova Shaxnoza Qo'chqarovna, Xamroyeva Zarina Shaxriyevovna	



Rahbar va pedagogik muhit: nazariy va amaliy asoslar	824
<i>Xodjimatrova Nazira Toshmatovna, Gaziyeva Nigora Shamsiddinova</i>	
O'smirlik – deviant xulq shakllanishi uchun senzitiv davr sifatida	827
<i>Sattarova Shahnoza Qo'chqarovna, Erkinjonova Raximaxon Baxtiyor qizi</i>	
Цифровые образовательные технологии как средство формирования коммуникативной компетенции при обучении русскому языку как иностранному	830
<i>Ескараева Г. Б.</i>	
Kredit-modul tizimi sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning amaliy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	833
<i>Muxiddinova Nilufar Baxodirovna</i>	
Talabalar mediakompetentligini baholash usullari va mezonlari	839
<i>Alimov Zokir Chori o'g'li</i>	
STEAM ta'lim texnologiyasi orqali tabiiy fanlarni o'qitish va o'quvchilarda kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirish	844
<i>Ergasheva Malohat Tursunovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy salohiyatini aniqlash va baholash mezonlari	847
<i>Hamzayeva Nigina Azamjonovna</i>	
Uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalarni o'qitishda fanlararo bog'liqlik	852
<i>Musayeva Dilfuza Abdurahmonova</i>	
Ta'limda muloqot madaniyatini shakllantirishga qaratilgan metodlar tizimini ilmiy tahlil qilish	857
<i>Kobulova Maktuba Urmonjonovna</i>	
Shaxs psixologik portreti va unga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar	862
<i>Ataqulov Bekzod Abdurashitovich</i>	
Zamonaviy didaktik paradigmadagi talabalar ta'lim natijalarini tashxislash	866
<i>Tursunova Feruza Otaqulovna</i>	
Ingliz tilini bilishning sport talabalari uchun ahamiyati	869
<i>Azimova Umirxon Odilovna</i>	
Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid ma'naviy va axloqiy qarashlari	873
<i>Baxtiyor Suvankulov</i>	
Oliy ta'limda talabalarning mustaqil va ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishning metodik asoslari	877
<i>Abduraxmonova Dinara Yusupovna</i>	
Tarbiya jarayonida pedagogik boshqaruv uslublari: nazariy asoslar va amaliy mexanizmlar	881
<i>Farsaxonova Dilafruz Rizaxonovna</i>	
Maktabgacha ta'lim davlat talablari va o'quv dasturlarida nutq hamda mustaqil fikrlash masalalari	886
<i>Mirzoyeva Nigora Shavkatjonovna, Qobilova Dildora</i>	
Zamonaviy ta'lim texnologiyalari orqali talabalarning kasbiy loyihaviy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari	890
<i>Xamidova Feruza Turdiyevna</i>	
Raqamli davr bolasini tarbiyalashda psixologik muvozanatni saqlash orqali sog'lom shaxsni shakllantirish	896
<i>Hakimova Ziyoda Ibrohim qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik intellektini shakllantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalarining samaradorligi	900
<i>Xolbozorova Nasiba Xolbozar qizi</i>	
O'qish savodxonligini rivojlantirishda qo'llaniladigan nazariy modellar	903
<i>Abdiraimova Xusnobod Samat qizi</i>	
Talabalar mustaqil ta'limini individuallashtirish metodlari	910
<i>Arzikulova Surayyo Fayzullayevna</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishning amaliy asoslari	914
<i>Xoliqulova Kumush Ilxom qizi</i>	
Psixologik-pedagogik yondashuvlar asosida mahdudlik holatlarini bartaraf etishning takomillashtirilgan metodikasi (maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari misolida)	919
<i>Mamatqulova Dinora Yunus qizi</i>	

Ilg'or pedagogik texnologiyalar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativlikni rivojlantirish	923
Uzoqova Husnora	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ilk matematik tasavvurlarni shakllantirish jamiyatning asosiy talabi sifatida	927
Toshimova Gulzoda Jamoliddinovna	
Sun'iy intellekt vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining iqtisodiy va moliyaviy savodxonligini shakllantirish mexanizmlari	930
Jumayeva Feruza Sayidovna	
O'qish savodxonligi darslarida matn ustida ishlash (2-sinf misolida).....	936
Abdiyeva Shakila Ishkuvatovna	
Turistik faoliyatda ijtimoiy muloqot kompetensiyasini takomillashtirishning pedagogik asoslari.....	941
Abdullayeva Sevara Yuldashevna	
Oilaning katta avlodi va maktabgacha yoshdagi bolalar o'rtaqidagi psixologik munosabatlarning nazariy asoslari	944
Ashirova Sojida Baxromovna	
Yosh pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda tajriba almashishning ilmiy-metodik asoslari va usullari	948
Dildora Rustam qizi Fozilova	
Maktabga tayyorlov bosqichida o'quvchilar grafomotorikasini individual yondashuv asosida rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari	951
Jumayev Sanjar Soatmumin o'g'li	
Uzluksiz ta'limda inklyuziv yondashuvning samaradorligini ta'minlovchi pedagogik va ijtimoiy omillar.....	955
Kobilova Shaxnoza Xudayshukurovna	
Tolerantlik tushunchasining mohiyati va uning ta'lim tizimidagi ahamiyati.....	958
Kurbanova Shoirra Abduraximovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni mashg'ulotlar jarayonida TRIZ texnologiyasi bilan tanishtirishning ahamiyati.....	961
Meliboyev Anvar Rashidovich	
The Conceptual Framework and Pedagogical Affordances of Vtss: A New Paradigm for Specialised Instruction.....	964
Nilufar Sabirova	
O'zbek oilalarida axloqiy tarbiya munosabatlarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	967
Qurbonova Go'zal Saydaxmatovna	
Fizika o'qitishda 4K kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy asoslari	973
Saydayev Obid Bahodir o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida innovatsion faoliyat ko'nikmalarini takomillashtirishning modulli texnologiyalari	979
Saliyeva Perdexan Alimbetovna	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak ijtimoiy soha xodimlarining kognitiv kompetentligini rivojlantirish	984
Qaxxorov Shahriyor Yodgorovich	
Maktabgacha ta'limda ma'naviy-axloqiy tarbiyani amalga oshirish usullari.....	987
Sattorova Shaxlo Axadovna, Omonova Shoxista Anvar qizi, Raximova Durdona Murot qizi	
Ta'lim tizimida sun'iy intellekt elementlaridan foydalanishning afzalliklari	990
Sulaymanova Dildora Baxtiyorovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekologik sanalarga bag'ishlab ma'rifiy tadbirlar o'tkazishning afzalliklari.....	993
Tohirova Baxtigul Hasanboy qizi	
Pedagogik ta'limda talabalarning gnoseologik motivatsiyasini rivojlantirish zaruriyati	996
Xudoyqulova Dilrabo Shodmonovna	
Сопоставление русских и узбекских пословиц: сходства, различия и культурный контекст	1000
Касымова Феруза Суннатовна	
Теоретические аспекты развития мотивационной сферы в психологии изучения личности	1003
Маликова Эвелина Тимуровна	



Психологическая устойчивость личности в исследованиях узбекских учёных: теоретический анализ и применение концепции	1007
Саитходжаев Зуфар Хусан угли	
Biologiya ta'limida kognitiv yondashuv asosida o'quvchilarning universal o'quv faoliyatlarini shakllantirish	1011
Daminova Fayoz Abdixakimovna	
Milliy musiqa merosini zamonaviy ta'limda saqlash muammolari va yechimlari.....	1014
Haydarov Qutlug' Hamdamovich	
Sun'iy intellekt: maktabgacha ta'lim tashkilotining taraqqiyotini ta'minlovchi zamonaviy texnologiya sifatida.....	1017
Axmadaliyeva Mohlaroy Toxtapo'latovna	
Shukur Xolmirzayevning ijtimoiy-etnografik folklorizm yaratish mahorati	1021
Mamayusupova S. M.	
Androgogik va interfaol metodlarni jismoniy tarbiya mashg'ulotlarda foydalanish samaradorligi.....	1024
Normamatov Muxiddin Abdumuminovich	
Tinglab tushunishning psixolingvistik xususiyatlari.....	1028
O. V. Kon	
Gi de Mopassanning hikoyachilik mahorati va badiiy uslubi.....	1032
Yuldashev Bahodir Bekmuratovich	
Художественный мир и стилистическая система прозы Патрика Модiano.....	1035
Давронова Зульфия Бобоевна	



OLIIY TA'LIMDA TALABALARNING MUSTAQIL VA ILMIY-TADQIQOT ISHLARINI OLIB BORISHNING METODIK ASOSLARI

Abduraxmonova Dinara Yusupovna

JDPU Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi kafedrasida katta o'qituvchisi (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarni ilmiy-tadqiqot ishlariga keng jalb etish, ularning bilimlarini boyitish hamda o'quv malakalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Hozirgi davrda talabalar ilmiy faoliyatini kengaytirish, ularning ilmiy-nazariy tafakkurini rivojlantirish va fikrlash doirasini kengaytirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb etish zamonaviy talabalar darajasida raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash jarayonida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, maqolada talabalar mustaqil ta'limini rivojlantirish, ilmiy maqola va tezislarni tayyorlash, konferensiyalarda ishtirok etish orqali ularning ilmiy salohiyatini oshirish masalalari ham tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: talabalar, mustaqil ta'lim, ilmiy-tadqiqot ishlari, kutubxona, tesis, maqola, konferensiya, ilmiy maqola, ustoz-shogird.

Abstract: This article discusses the importance of involving students in scientific research activities, enriching their knowledge, and developing their academic skills. In modern higher education, expanding students' scientific and theoretical activities, improving their analytical thinking, and broadening their intellectual outlook are considered essential tasks. Engaging students in research work serves as a key factor in preparing competitive specialists who meet contemporary professional requirements. The article also examines the role of independent learning, preparation of scientific papers and theses, and participation in academic conferences in enhancing students' research potential.

Key words: students, independent learning, scientific research, library, thesis, article, conference, scientific article, mentor–student.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы активного привлечения студентов к научно-исследовательской деятельности, обогащения их знаний и развития учебных навыков. В современных условиях расширение научно-теоретической деятельности студентов, развитие их научного мышления и расширение кругозора являются важными задачами высшего образования. Привлечение студентов к научно-исследовательской работе выступает одним из ключевых факторов подготовки конкурентоспособных специалистов, отвечающих требованиям современности. В статье также анализируются вопросы развития самостоятельного обучения студентов, подготовки научных статей и тезисов, а также участия в научных конференциях как средств повышения их научного потенциала.

Ключевые слова: студенты, самостоятельное обучение, научно-исследовательская деятельность, библиотека, тезисы, статья, конференция, научная статья, наставник-студент.

KIRISH

Mamlakatimizda oliy ta'limni rivojlantirish masalasiga doimiy ravishda e'tibor qaratib kelinmoqda. Buni keyingi yillarda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun hamda qator qarorlarda ham yaqqol ko'rish mumkin. Mazkur qarorlar va ushbu sohadagi boshqa me'yoriy ko'rsatmalar hozirgi vaqtda oliy o'quv yurtlarida ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda, shuningdek, ilmiy ishlarni takomillashtirishda muhim dasturilamal bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Talabalarni ilmiy-tadqiqot ishlariga tobora ko'proq jalb etish, ularning bilimlarini boyitish hamda o'quv malakalarini rivojlantirish hozirgi kunning g'oyatda muhim va dolzarb talablaridan biri hisoblanadi. Chunki talabalarning ilmiy-nazariy faoliyatini kengaytirish, fikr doirasini takomillashtirish, qisqasi, ularni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etish – hozirgi zamon talablariga to'liq javob bera oladigan mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirishdagi eng samarali omillardan biridir. Shunga ko'ra, talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida qatnashishi muhim vazifa sifatida belgilangan. Ilmiy-tadqiqot ishlari pedagogika institutlarining o'quv rejalariga ham kiritilgan. Bu esa ilmiy ishlarni ommaviy shaklda tashkil etish hamda bo'lajak o'qituvchilarning yosh avlodni

o'qitish va tarbiyalash tajribasini umumlashtirish, ushbu sohada ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borishga oid zarur malakalarni shakllantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta'lim tizimida talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb etish hamda mustaqil ta'limni rivojlantirish masalalari pedagogika fanida muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu masala bo'yicha bir qator mahalliy olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, M. X. To'xtaxodjayeva tahriri ostida nashr etilgan "Pedagogika nazariyasi va tarixi" asarida ta'lim jarayonida talabaning mustaqil fikrlashi, ilmiy tafakkurini rivojlantirish hamda pedagogik jarayonni ilmiy asosda tashkil etish masalalari keng yoritilgan. Ushbu tadqiqotlarda talabaning mustaqil ta'lim faoliyati uning kasbiy kompetentligini shakllantirishning muhim omillaridan biri sifatida talqin etiladi.

Oliy ta'limda ta'lim jarayonini zamonaviy tashkil etish va talabalarni ilmiy izlanishlarga yo'naltirish masalalari B. Sh. Usmonov va A. A. Habibullayeva tomonidan ham o'rganilgan. Mualliflarning "Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil etish" nomli ilmiy ishida kredit-modul tizimi sharoitida talabalarining mustaqil ta'limi, ilmiy izlanishlari va tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishning metodik asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotchilar oliy ta'limda mustaqil ta'limning ulushi ortib borishi talabalarining ilmiy faoliyatini rivojlantirishda muhim omil ekanligini ta'kidlaydilar.

Talabalarining mustaqil o'quv faoliyatini samarali tashkil etish masalalari B. Yu. Xodiyev va L. B. Gomin tomonidan ham tadqiq etilgan. Ularning ilmiy ishlarida mustaqil ta'limni tashkil etishning usullari, vositalari hamda pedagogik shart-sharoitlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Mualliflar mustaqil ta'lim jarayonida talabalarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etish, ularning analitik fikrlashini rivojlantirish va ijodiy yondashuvini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri ekanligini ta'kidlaydilar.

Shuningdek, R. J. Ishmuhamedov va M. Yuldashev tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish, talabalarni faol o'quv jarayoniga jalb etish hamda ilmiy-tadqiqot ko'nikmalarini shakllantirish masalalari tahlil qilingan. Mualliflar innovatsion metodlar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarni mustaqil izlanishga undashi, ularning ilmiy tafakkurini rivojlantirishi hamda ilmiy faoliyatga qiziqishini oshirishini ilmiy jihatdan asoslab beradilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda oliy ta'lim muassasalarida talabalarni mustaqil ta'lim hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb etish jarayonining metodik jihatlarini o'rganish maqsadida bir qator ilmiy-uslubiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida, avvalo, pedagogika sohasiga oid ilmiy adabiyotlar, monografiyalar, darslik va o'quv qo'llanmalar hamda normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida talabalar ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish tajribasini o'rganish maqsadida kuzatish, suhbat va anketa so'rovi usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot davomida talabalar hamda professor-o'qituvchilar faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlar yig'ildi, mustaqil ta'lim jarayonini tashkil etishning amaliy jihatlarini tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy tahlil, umumlashtirish va tizimlashtirish usullari asosida qayta ishlanib, talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb etishning samarali shakl va usullari aniqlab olindi. Shuningdek, tadqiqot natijalarini ilmiy asosda baholash maqsadida pedagogik tahlil hamda mantiqiy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Natijada oliy ta'lim jarayonida talabalar mustaqil ta'limi va ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlar aniqlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yangi dastur asosida hozirgi zamon o'qituvchisini yetishtirish oliy o'quv yurtlarida ta'lim-tarbiya olayotgan talabalarining dunyoqarashini yanada takomillashtirish, ilmiy va o'quv-tadqiqot ishlarini yuksak saviyaga ko'tarish kabi masalalar bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun hukumatimiz bo'lg'usi o'qituvchilar – talabalarining ilmiy-nazariy faoliyatini shakllantirish, fikr doirasini takomillashtirish ishiga alohida e'tibor qaratmoqda. Masalan, qabul qilinayotgan turli qarorlarda talabalarni o'qish, o'rganish, ijod qilishga yo'naltirish va nazariy bilimlarini tajriba bilan bog'lash yo'llari haqida aniq ko'rsatmalar berilgan. Oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan yoshlarni g'oyaviy-siyosiy jihatdan tarbiyalash bo'yicha oliy maktab oldida turgan masalalar orasida talabalar ilmiy-tadqiqot ishlari rolini oshirish muammolarini hayotning o'zi ajratib ko'rsatdi. Har bir talaba o'qish davrida ilmiy-tadqiqotga yaqin mustaqil ish qilish ko'nikmalarini hosil qilishi, bu ish metodlarini egallashi lozim.

Talabalar oliy o'quv yurtlariga kelgan dastlabki kunlaridanoq ilmiy tadqiqot ishlarida ishtirok etishlari insoniyat yaratgan bilim boyliklarini chuqur va sifatli egallashiga yordam beradi, yoshlarda e'tiqodning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi, talabalarining ijodiy qobiliyatlarini o'stiradi hamda nazariy bilim doirasini kengaytiradi.



Oliy maktabda tarkib toptirilgan tadqiqotchilik ko'nikmalari ilmiy faktlarni to'plash va tahlil qilishga, ularni umumlashtirishga, mustaqil ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishga imkon beradi. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, bajariladigan vazifa yoshlarni nazariy fikrlashga o'rgatish, ularni hayotga hamda amaliy ishga tayyorlashdan iboratdir.

Talabalar ilmiy-tadqiqot ishlarining tarbiyaviy vazifalarini amalga oshirish uchun talabalar ilmiy to'garaklari va jamiyatlarida qiziqishni kuchaytirish, ijodiy ishtiyoqni alanga oldirish zarur. Shunday qilingandagina ilmiy ijod haqiqatan ham yangilikni, noma'lumni bilish jarayoniga aylanadi. Bu jarayon asosida esa ishga, kasbga muhabbat hamda jamiyat uchun foydali bo'lish istagi yotadi.

Talabalar ilmiy-tadqiqot ishlarining to'g'ri yo'lga qo'yilishi, talabalar jamoasida ijodiy kayfiyatning hukm surishi, ularning ilmiy ishlariga mahorat bilan rahbarlik qilinishi oliy o'quv yurtlari yoshlari yaxshi o'qishining muhim omilidir. Oliy o'quv yurtlarida quyidagi shart-sharoitlar mavjud bo'lsagina ilmiy-tadqiqot ishlari yordamida talabalarni tarbiyalash sohasida samaradorlikka erishish mumkin:

- talabalar ilmiy-tadqiqot ishlarining aniq rejasi ishlab chiqilib, uni tegishli kafedralarda olib boriladigan ilmiy tadqiqotlarning tematik rejasi bilan moslashtirish;
- talabalar mehnatini uyushtirish saviyasini takomillashtirish;
- ilmiy ishlarga sirtqi va kunduzgi bo'lim talabalari, shuningdek, chet ellik talabalarni jalb etish;
- kafedra muammolarini hal etishda talabalarni jamoa bo'lib ishtirok ettirishni yo'lga qo'yish (bu – oliy o'quv yurtlari faoliyatida jamoaviylik, o'rtoqlik va o'zaro yordam tuyg'ularini shakllantirishga yordam beradi);
- professor-o'qituvchilar tarkibining talabalar ilmiy ishlariga ilmiy rahbar sifatidagi faolligini oshirish;
- talabalarning eng yaxshi ishlarini hamda ularning rahbarlarini taqdirlash tizimini takomillashtirish va hokazo.

Ilmiy-tadqiqot ishlarida faol qatnashish talabalar faoliyatiga to'g'ri yo'nalish berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu yo'l bilan bo'lg'usi mutaxassislarini fanning muhim masalalarini hal etishda qatnashtirish imkoniyati yaratiladi. Ular oliy maktabning o'zidayoq ilmiy muammolarini hal etishni o'rganadilar, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda olgan bilimlarini mustahkamlaydilar. Bu esa o'z navbatida fanlarni yaxshi o'zlashtirishga ham yordam beradi.

Oliy o'quv yurtlari talabalarining ilmiy-tadqiqot ishlari asosan uchta maqsadni amalga oshirishga, ya'ni talabalarda bilim va malakalarni takomillashtirishga, uzluksiz bilim olish odatini shakllantirishga hamda pedagogika yoki xususiy metodika bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish iqtidorini tarkib toptirishga qaratilganidir. Talabalarning ilmiy ishlari ikki xil bo'lib, birinchisi bevosita ta'lim jarayonida bajariladigan o'quv-tadqiqot ishlarini, ikkinchisi esa ta'lim jarayonidan tashqarida olib boriladigan ilmiy-tadqiqot ishlarini o'z ichiga oladi. Ammo ta'lim jarayonidan tashqari olib boriladigan ilmiy-tadqiqot ishlari ta'lim jarayonida bajariladigan o'quv-tadqiqot ishlarining tabiiy davomi hisoblanadi. Boshqacha aytganda, o'quv-tadqiqot ishlari ilmiy-tadqiqot ishlariga tayyorlanish bosqichi bo'lib, talabalarni ilmiy izlanishlarga o'rgatishning dastlabki shaklidir.

Ma'ruza vaqtida tug'iladigan savollarga javob topish, vujudga keladigan muammolarni hal etish, laboratoriya mashg'ulotlarida turli topshiriqlarni bajarish talabalarda ilmiy ishlar olib borish iqtidorini o'stiradi. O'quv-tadqiqot ishlarini muntazam ravishda tashkil etish, talabalarning ilmiy to'garaklarda ma'ruzalar tayyorlashi, konferensiyalarda qatnashishi, kafedralarning ilmiy rejalarini bajarishda yordamlashuvi, maktablarda ilmiy-tadqiqotlar olib borishi, kurs va MBI ishlari yozishda murakkab vazifalarni bajarishi uchun mustahkam zamin yaratadi. Shuning uchun o'quv-tadqiqot ishlari talabalar bilimini boyitishning, umuman, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashning g'oyat muhim va samarali vositasi hisoblanadi. Bunda talabalarning o'quv-tadqiqot ishlarini tanlangan biror muammo bo'yicha tizimli yo'lga qo'yishi yaxshi natija beradi.

Talabalar ilmiy-tadqiqot ishlari ularning o'quv-tadqiqot ishlari bilan qo'shib olib boriladi va u o'quv tadqiqot ishlarining yakuni hisoblanadi. Ilmiy-tadqiqot ishlari o'quv jarayoni davomida quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

1. Tanlangan mavzu asosida adabiyotlar ro'yxatini tuzish va referat tayyorlash. Bu talaba ilmiy-tadqiqot ishinig eng sodda shakli bo'lib, talabani mustaqil ishlarga o'rgatadi.
2. Talabalar ilmiy-tadqiqot ishinig yana bir shakli – kurs va MBI ishlari bajarish jarayonida ilmiy tadqiqot ko'nikmalarini singdirishdir. Bu shakl bevosita o'quv jarayoni bilan bog'langan bo'lib, ommaviy xarakterga ega, chunki u barcha talabalarni qamrab oladi.
3. Ilmiy rahbar va kafedra topshirig'iga binoan individual reja asosida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish. Bu shakl talabaning nazariy bilimini mustahkamlashga ko'maklashadi.



4. Talabalar ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etishning muhim shakllaridan yana biri – ularning davlat byudjeti va xo'jalik shartnomalari mavzularidagi ishlarda qatnashishidir. Ilmiy tadqiqot ishining bu shakliga asosan yuqori kurs talabalari jalb etiladi.
5. Talabalar ilmiy jamiyatining eng ommaviy shakli kafedra qoshidagi ilmiy to'garaklar hisoblanadi. Chunki u talabalar ilmiy qarashini shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi. Xuddi ana shu to'garaklarda talabalar olimpiadalari, turli musobaqalar hamda talabalar konferensiyalarining qatnashchilari va g'oliblari shakllanib yetishadi.

Talabalar ilmiy ishlarini yanada jonlantirish va takomillashtirish, ularning sifatini oshirish maqsadida oliy o'quv yurtlarida talabalar ilmiy-tadqiqot ishlari jamiyatini tashkil etish mumkin. Bu jamiyatning asosiy maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

- oliy maktabdagi barcha talabalarni ilmiy ishga jalb etish;
- kafedra va fakultetlarda o'quv-tadqiqot hamda ilmiy-tadqiqot ishlarini uyushtirishni nazorat qilish va umumlashtirish;
- ko'rik, tanlov, olimpiada hamda ilmiy-nazariy anjumanlarni uyushtirish;
- talabalar ilmiy ishini targ'ib qilish va hisob-kitob ishlarini yuritish;
- ilmiy ish natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish va boshqalar.

Talabalar ilmiy-tadqiqot ishlarining samaradorligini oshirish uchun ilmiy ishni tashkil etishning umumiy prinsiplari asosida ish olib borish zarur. Ilmiy ishni tashkil etishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- ilmiy ishga ijodiy yondashish, ya'ni talaba ilmiy-tadqiqoti jarayonida materiallar va faktlarni mustaqil sharhlash, izohlash hamda asoslash;
- har qanday ishda bo'lgani kabi ilmiy ishni ham reja asosida tashkil etish. Har bir talabaning kelgusi semestr uchun ilmiy ish rejasi bo'lishi lozim. Individual ish reja asosida ish jadvali tuziladi;
- fan taraqqiyotining hozirgi davrida ilmiy ishni tashkil etishning jamoaviylik prinsipi muhim ahamiyat kasb etadi;
- ilmiy ishni tashkil etish jarayoni ham ko'plab muammolarni o'z ichiga oladi. Bunda ish joyini tayyorlash, ish vaqti rejimiga rioya qilish, izchillik, tizimlilik va mehnat intizomiga amal qilish muhim ahamiyatga ega.

Talabalar ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari to'garak mashg'ulotlaridan so'ng har yili institut miqyosida o'tkaziladigan ilmiy-nazariy konferensiyalarda muhokama qilinadi. Eng yaxshi ilmiy-tadqiqot ishlari turli mukofoatlarga, tuman va respublika ko'rik-tanlovlari tavsifiya etiladi. Respublika ko'rik-tanlovida yuqori baholangan ilmiy-tadqiqot ishlari respublika talabalari ilmiy jamiyati qaroriga muvofiq har yili o'tkaziladigan ko'rik-tanlovlarga yuboriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Talabalarni ilmiy-tadqiqotlarda hamda texnologik yechimlarni ishlab chiqishda faol ishtirok etishi ijodiy tafakkurni rivojlantirishning asosiy vositalaridan biri ekanligini inobatga olib, keyingi vaqtlarda ko'pgina oliy o'quv yurtlarida talabalar ilmiy-tadqiqot ishlariga tobora ko'proq jalb etilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi. 2020-yil 23-sentabrda "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonun: <https://lex.uz/docs/-5013007>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrda "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni: <https://lex.uz/docs/-4545884>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 7-dekabrda "Professional ta'limda kredit-modul tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 648-sonli qaror: <https://lex.uz/docs/-6689499>
4. B. Sh. Usmonov, A. A. Habibullayeva. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil etish. – Toshkent, 2020.
5. B. Yu. Xodiyev, L. B. Gomin. Mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish usul va vositalari. – Toshkent, 2020.
6. M. X. To'xtaxodjayeva (tahriri ostida). Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012.
7. R. J. Ishmuhamedov, Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2017.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.